O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING

Q A R O R I

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2022 - yil 28 - yanvar 32-4-0-Q/22 Qashqadaryo viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi “Respublika hududlarida tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 54-son farmoni ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi “Respublika hududlarida tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 54-son farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi “Respublika hududlarida tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 54-son farmoni ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur farmoni bilan:

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi va Moliya vazirligining taklifi bilan Qoraqolpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat hokimliklari huzurida tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish jamg‘armalari tashkil etilganligi;

jamg‘arma mablag‘lari qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlarini moliyalashtirish, bunda dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirish

markazlashtirilgan manbalar hisobidan bajariladigan qurilish-ta’mirlash ishlarining manzilli dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi asosida amalga oshirilishi;

jamg‘armar hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar manzilli dasturi Qoraqolpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari qarori bilan tasdiqlanishi inobatga olinib, o‘rnatilgan tartibda ijroga qaratilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari N.Erkayev hamda viloyat hokimi o‘rinbosari B.Yusupovlar zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi v.b. **M.Azimov**